

NEOLOGIZMLARNING MAVZUVIY GURUHLARI HAQIDA

Saidova Xurshida Faxriddin qizi

BuxDU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yaqin yillarda o'zbek tiliga kirib kelgan va nutqda faol qo'llanayotgan yangi so'z va so'z birikmalari haqida fikr yuritiladi hamda ularning mavzuiy guruhlariga na'munalar keltiriladi. Neologizmlarning turlari bo'yicha nazariy ma'lumotlar keltiriladi.

Kalit So'zlar: neologizm, lug'at tarkibi, umumtil neologizm, mavzuiy neologizm, ijtimoiy-siyosiy neologizm, iqtisodiy neologizm, madaniy ma'rifiy, o'zgaruvchan neologizm, tarqalgan neologizm, turg'un neologizm.

Annotation: This article discusses the new words and phrases that have entered the Uzbek language in recent years and are actively used in speech, as well as examples of their thematic groups. Theoretical information on the types of neologisms is given.

Key Words: neologism, vocabulary structure, universal neologism, thematic neologism, socio-political neologism, economic neologism, cultural educational, changing neologism, widespread neologism, stable neologism

Hozirgi o'zbek tilida davrlar mobaynida uning barcha sohalarida bo'lgani kabi uning leksikasida ham turli xil o'zgarishlar va yangiliklar sodir bo'ldi. Ya'ni globallashuv va xalqaro aloqalarning o'sib borishi natijasida til sathiga ko'plab yangi tushuncha va atamalar kirib kela boshladi. Mustaqillikdan so'ng o'zbek tili lug'at boyligi yangi so'z va so'z birikmalari hisobiga ancha kengaydi va taraqqiy etdi. Buning asosiy sabablari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin.

- Istiqoldan so'ng jamiyat hayotida siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy va boshqa sohalardagi o'zgarishlar;
- ilm-fan va texnika taraqqiyotining yuksalishi;
- xorijiy tilda muloqot qiluvchi yurtdoshlarimizning chet tilidagi so'z va so'z birikmalarini o'z nutqlarida qo'llashlari;
- ijtimoiy tarmoqlardagi o'sishlar.

Bunday rivojlanish lug'at boyligining turli so'z va so'z birikmalari hisobiga kengayishiga olib keladi. Jamiyatda ma'lum bir soha yuksak rivojlansa, uning leksikasida ham boyish yuz beradi. Taraqqiy etgan sohada esa neologik tushuncha va bularni nomlovchi yangi so'zlar guruhi shakllanadi. O'zbek tilshunosligida neologizmlar, o'zlashma so'zlar bo'yicha U.Tursunov, S.Ibrohimov, Sh.Shoabdurahmonov, O.Usmonov, N.Mamatov, X.Jamolxonov, N.Qosimov, A.Madvaliyev, N.Mahkamov kabi yuzlab olimlarning monografiya, dissertatsiya va lug'atlari, ko'plab maqolalari yuzaga kelgan [4, 88]. Yangilik bo'yog'iga ega bo'lgan so'zlar tilshunoslikda neologizmlar (yunoncha neos – yangi) deb ataladi. Neologizm tilga umuman mansub bo'lishi yoki yakka shaxs nutqiga xos bo'lishi mumkin. Neologizmlar dastlab ma'lum kishilar nutqida namoyon bo'ladi. Keyinchalik, ular zamon talabi bilan yo umumxalq tiliga o'tishi yoki faqatgina o'sha shaxs nutqidagina

saqlanib qolishi mumkin. Shunga ko'ra, ular ikki guruhga bo'linadi: a) individual neologizmlar; b) umumtil neologizmlar. Birinchisi umumtil neologizmi deb, ikkinchisi individual nutq neologizmi deb yuritiladi. Leksemikada asosan umumtil neologizmi o'rganiladi. Individual nutq neologizmi uslubga xos hodisa deb qaraladi [3,145]. Yangilik bo'yog'iga ega bo'lgan so'zlar tilshunoslikda o'zlashma neologizmlar ham deb ataladi [1, 58]. Kundalik turmushdagi yangicha munosabatlarni, yangi narsalar va ularning belgilarini, yangi hodisalar, tushunchalarni ifodolovchi lug'aviy birliklardir. Bunday so'zlar xususiyatiga ko'ra ikki turga bo'linadi:

1. Leksik o'zlashma neologizmlar.

2. Semantik o'zlashma neologizmlar

Tilda yangi lug'aviy qatlam - neologizmlar tashqi (ekstralingvistik) va ichki (lisoniy) omillar asosida vujudga keladi. Lisoniy omillar (lingvistik faktorlar) - tilning strukturaviy va sistemaviy xususiyatlaridan kelib chiqadigan omillar.

A. To'raxo'jayeva mustaqillik davri o'zbek tili ijtimoiy-siyosiy leksikasining taraqqiyotini o'rganar ekan, tilning ichki imkoniyatlari sifatida so'z semik tuzilishidagi u yoki bu semani faollashtirish, leksema sememasini muayyan tushunchaga ixtisoslashtirish, semema mundarijasini yangi sema bilan boyitish kabi qator usullardan foydalanilganini yozadi. Nolisoniy omillar (ekstralingvistik faktorlar) - til taraqqiyotiga (shu jumladan, leksik tizim rivojiga) tashqaridan ta'sir o'tkazuvchi omillar: ijtimoiysiyosiy tizim, psixologiya, urf-odatlar, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot, adabiyotsan'at va boshqalar [6,12].

Tilga kirib kelgan yangi so'zlar haqida L.P. Krisin o'zlashmalarni "turli elementlarni bir tildan ikkinchi tilga o'tkazish jarayoni deb ataydi".

Hozirgi kunda barcha sohalarda mavjud bo'lgan va muomalaga hech qanday qiyinchiliklarsiz kirib kelgan neologizmlarga tilshunoslik nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, bu so'zlar internet va kompyuter texnologiyalari orqali tilimizga kirib keldi va biz bunday so'zlarni nutqda faol qo'llamoqdamiz.

Yaqin yillarda tilimizda faol foydalanilayotgan yangi so'z va so'z birikmalarini quyidagicha mavzuiy guruhlarga ajratish mumkin:

1. Ta'limga oid neologizmlar: tyutor, volontyor, o'quv-trening, submadaniyat, slayd, monomarkaz, videodars, vebinar, karyera, portfolio, sertifikat, attestatsiya, master klass, mental arifmetika, interfaol mashg'ulot, klaster, videokonferensiya, trafaret, tipografiya, printer, skaner, kserokopiya, kanstovar, pereplyot, qabul kvotasi...

2. Tibbiyot va davolash sohasiga doir: koronavirus, diagnostika, UZI, endokrinolog, psixolog, motivatsiya, psixoterapiya, neyrolog, pulmonolog, dietolog, klinik ordinator, bahilla.

3. Oziq-ovqat va ichimlik nomlarini bildiruvchi neologizmlar: fast fud, burger, chizburger, sendvich, gamburger, doner, lavash, kefsi, moxito, master food, chips, mango, kokos, avocado, popkorn, steyk, yogurt, ketchup, bento tort, beze.

4. Mobil qurilma va ijtimoiy tarmoqqa oid neologizmlar: android, smartfon, bulutuz, vayfay, sensor, gadjet, ayfon, netbuk, airpod, akkaunt, profil, instagram, telegram, ssilka, blog, admin, messenjer, ovozliqo'ng'iroq, videoqo'ng'roq, feysbuk, zoom, imo.

5. Maishiy texnikaga oid neologizmlar: multivarka, mikroto'lqinli pech, toster, barbekyu, blender, chopper, havo tozalagich, tefal, mikser.

6. Kiyim-kechak va pardozga oid so'zlar: jilet, amerikanka, svitshot, bodi kiyim, korset, tunuka, bluzka, bomber, lofer, kardigan, surtuk, keda, mokasina, klatch, kosmetolog, kosmetichka, fen, gofre-ployka, piling, rastushovka, tatuaj, shellak, keratin, boteks.

7. Bank-moliya sohasiga oid neologizmlar: subsidiya, kredit kartochka, kliring, imtiyozli kredit, markirovka, aviso, treyder, embargo, lizing.

8. Soliq va pul sohasiga oid neologizmlar: klik, uzcard, humo, mastercard, bankomat, terminal, keshbek, paynet, plastik karta, kriptovalyuta, elektron to'lov, to'lov shaxobchasi, plastik karta.

9. Bozor iqtisodiyoti va savdo-sotiqqa oid neologizmlar: investitsiya, biznes, tadbirkor, investor, diler, makler, demping, marketing, biznes ledy, korzinka, supermarket, mini market, mega market, shopping, onlayn savdo.

10. Turizm sohasiga oid neologizmlar: hotel, hostel, turist, lokatsiya, gastronomiya, tur, gid, turoperator, resepsin, viza, grinkard, aviakompaniya, veloturist, ekotur, furshet.

11. San'at va OAV sohasiga oid neologizmlar: kover, soundrakt, karaoke, battle, kasting, shoubiznes, prognoz, garant, instabloger, mass-media, anons, intervyu, ssenarist, prodyuser, jurnalist, grafist, koperayter, studiya, montaj ustasi, kinotavsiya, instabloger, xeshteg, layfhak, prank.

12. Sport leksikasiga oid neologizmlar: kibersport, para sport, street workout, pleysteyshin, fristayl, skuter, kikboksing, skeytbord, vaterpolo.

13. Siyosiy faoliyaga oid neologizmlar: vakolatxona, prezident portali, ombudsman, agentlik, xalq qabulxonasi.

14. Xalqaro munosabatlarga oid neologizmlar: denonsatsiya, xalqaro loyiha, sanksiya, konsullik, memorandum, debat, sammit.

15. Huquq-qonunchilikka oid neologizmlar: konsepsiya, abonement, eksekvatura, plebissit, agitatsiya, rezolyutsiya, reglament kabilar.

16. O'rin-joy nomlarini bildiruvchi neologizmlar: karaoke, biznes markaz, yoshlar markazi, yagona darcha, xalq qabulxonasi, kottej, kollej, litsey.

17. Fan va ta'limiy yo'nalish nomlari: kompyuter lingvistikasi, dasturlash asoslari, mental arifmetika, marketing, psixolingvistika, yurisprudensiya, biznes-tahlil, ekonometrika, menejment, raqamli iqtisodiyot, sun'iy intellekt, tarjima nazariyasi, defektologiya, kibexavfsizlik, injiniringi, ftiziatriya, pulmonologiya, immunologiya, allergologiya, kompyuter muhandisligi.

18. Transportga oid: tuning, tuning house, avto kredit, ekektromobil, metropolitan, transport infratuzilmasi, elektropoyezd, radar, park.

Bunday mavzuiy guruhlar sirasini yana davom ettirish mumkin. Chunki hozirgi kunda jamiyatimizda har bir soha rivojlangan va yangi-yangi sohalar yuzaga kelmoqda. Shuningdek, yangi paydo bo'lgan so'zlarni turli jihatlariga ko'ra ham tasniflash mumkin: ijtimoiy-siyosiy atamalar, iqtisodiy atamalar, madaniy-ma'rifiy atamalar, texnik atamalar kabi gurularga. [8,5]. Biz yangi so'zlarni mavzuiy guruhlar doirasida o'rgansak, o'zbek tilida o'zlashma so'zlar bazasining asosiy qismini yatargan bo'lamiz. Eng muhimi, tilimiz lug'aviy

qatlamidan o'rin olayotgan neologizmlar, xususan, termin-neologizmlarni to'plash, ularning har biri uchun alohida va umumiy izohli lug'atlar yaratish, o'zlashmalarning imlosi, transliteratsiyasi muammolari bilan shug'ullanish o'zbek tilshunosligining dolzarb muammolari qatoriga kiradi.

O'zlashma neologizmlarning tilda paydo bo'lishi va yo'qolishi uning tilga qabul qilinganligida yoki lug'atlardan joy olganligida namoyon bo'ladi. Agar neologizmlar jamiyatda faol qo'llanilayotgan bo'lsa, bu o'zlashma neologizmlar lingvistika va lug'atshunoslikda ham qabul qilingan hisoblanadi. Tilda o'zlashma neologizmlarning quyidagi turlari kuzatiladi: o'zgaruvchan – yangi ma'noli, birgina madaniyat vakillari tomonidan tor ma'noda qo'llanilgan o'zlashma neologizmlardir; tarqalgan – jamiyat tomonidan ishlatiladigan, ammo hali lingvistik jihatdan qabul qilinmagan o'zlashma neologizmlar; turg'un– barcha taniydigan, foydalanadigan va davomiylikga ega o'zlashma neologizmlar[7, 125].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, til jamiyat boyligidir. Insonlarning nutqiy faoliyati davomida va jadallik bilan rivojlanib borayotgan ommabiy axborot vositalari yordamida tilga yangi tushunchalar va ularni ifodalovchi neologizmlar ham kirib keladi. Bunday hodisa hech bir tilni chetlab o'tmaydi va bu ijobiy holat hisoblanadi. Chunki til hamisha o'sib borishi, o'zining so'zlashuvchilarini eng so'nggi yangilik va axborotlar bilan ta'minlashga xizmat qilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi. Yoshlar nashriyot uyi. Toshkent. 2019.
2. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili.
3. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. T.: "Universitet".2006
4. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi O'zbek adabiy tili. T.,1992.
5. To'raxo'jayeva A.X. Mustaqillik sharoitida o'zbek tili ijtimoiy-siyosiy leksikasining taraqqiyoti: Filol.fan.nom.diss.,...avtoref. – Toshkent.:2012.
6. Xo'jayev A., Nurmonov A., Zaynobiddinov S. va boshq. Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarning izohli lug'ati. – T.: "Sard",2001.
7. www.ziyonet.uz